



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
Toxirov Javlon Raximovich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
Arslonov U. U.	
RESURSLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
Komiljon Karimov	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
Karimova Xurshida Raximovna	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
Ли Марина Рудольфовна	
O'ZBEKISTONDA YER RESURSLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
Xoshimova Sevara Baxromovna	
FARMATSEVIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
Turayev Baxtiyor Ergashevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA
TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI 427
Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li



KIRISH

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, hududiy bandlikni qo'llab-quvvatlash, qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari, elektr energiyasi, texnika, kredit, investitsiya va mavsumiylik omillariga yuqori darajada bog'liq. Ayniqsa, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida suv va energiya xarajatlari mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalarini tahlil qilishda faqat sotishdan tushgan tushum yoki sof foyda ko'rsatkichlari bilan cheklanib bo'lmaydi. Tannarx, operatsion foyda, moliyaviy xarajatlar, aktivlar samaradorligi, pul oqimi va qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyati ham kompleks ravishda baholanishi lozim.

Davlat subsidiyalari ana shunday sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalarining xarajat yukini kamaytirish, investitsion modernizatsiyani qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksida subsidiya budget tizimi mablag'lari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga aniq maqsadli xarajatlarni qoplash uchun ajratiladigan pul mablag'i sifatida talqin etiladi [2]. Demak, subsidiya oddiy moliyaviy yordam emas, balki xo'jalik yurituvchi subyektning xarajatlari, foydasi, pul oqimi va investitsion qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi fiskal mexanizm hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlat subsidiyalari hisobiga shakllangan moliyaviy natijalarni talqin qilishda chuqur va xolis yondashuv zarur. Chunki hisobotlarda aks ettirilgan sof foyda subsidiyalar ta'sirida ijobiy shakllanishi mumkin, biroq subsidiyalar hisobga olinmagan holatda korxonaning asosiy operatsion faoliyati samaradorligi boshqa natijalarni namoyon etishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalarida subsidiyali va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni alohida tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligi korxonalarida davlat subsidiyalarining moliyaviy natijalarga ta'sir kanallarini tizimlashtirish hamda ularni buxgalteriya hisobida tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda ochib berish masalalarini ilmiy asoslashdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat subsidiyalarining iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- subsidiyalarning moliyaviy natijalarga ta'sir kanallarini aniqlash;
- subsidiyalarni MHXS asosida hisobda aks ettirish tartibini tahlil qilish;
- subsidiyali va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni alohida baholash zarurligini asoslash;
- qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi korxonalarida davlat subsidiyalari, moliyaviy natijalar va buxgalteriya hisobi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda turli yo'nalishlarda o'rganilgan. O'zbekiston olimlari tomonidan qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, agrar korxonalar samaradorligi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil masalalari alohida tadqiq etilgan.

A. Abdug'aniyev va A. A. Abdug'aniyevlarning "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" nomli darsligida agrar tarmoqning iqtisodiy mohiyati, resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligi va qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyati yoritilgan [3]. Mazkur yondashuv davlat subsidiyalarini qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi omil sifatida talqin qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, ushbu manbada davlat subsidiyalarining sof foyda, rentabellik va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga ta'siri alohida ekonometrik yoki hisob-metodologik model asosida tahlil qilinmagan.

R. D. Dismuratov va B. Yu. Menglikulovning "Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari" o'quv qo'llanmasida qishloq xo'jaligi korxonalarida xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, schotlarda aks ettirish, kalkulyatsiya va hisobot tuzish masalalari bayon qilingan [4]. Ushbu manba mazkur maqola uchun muhim ahamiyatga ega, chunki davlat subsidiyalari ham korxonalar buxgalteriya hisobida tan olinishi va hujjatlar

1 <https://lex.uz/docs/-4567334>



asosida aks ettirilishi lozim bo'lgan xo'jalik operatsiyasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu qo'llanmada subsidiyalarni MHXS asosida daromad bilan bog'liq grantlar va aktivlar bilan bog'liq grantlar sifatida tasniflash masalasi batafsil yoritilmagan.

B. A. Xasanov, M. Yu. Raximov, A. I. Aliqulov va boshqa hammualliflarning "Moliyaviy tahlil" darsligida korxonalarining moliyaviy natijalari, rentabelligi, likvidligi, moliyaviy barqarorligi va xo'jalik faoliyati samaradorligini baholash usullari keng yoritilgan [5]. Ushbu yondashuv qishloq xo'jaligi korxonalarida sof foyda, rentabellik, aktivlar samaradorligi va moliyaviy holat ko'rsatkichlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos yaratadi. Shu bilan birga, mazkur manbada davlat subsidiyalari hisobiga shakllangan foydani ichki operatsion samaradorlikdan ajratish metodikasi maxsus ishlab chiqilmagan.

Xalqaro miqyosda OECD tomonidan tayyorlanadigan "Agricultural Policy Monitoring and Evaluation" hisobotlarida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqaruvchi rag'batlari, bozor narxini qo'llab-quvvatlash va budjet transfertlari tahlil qilinadi [6]. Ushbu yondashuv subsidiyalarni faqat mablag' ajratish vositasi sifatida emas, balki ishlab chiqaruvchi qarorlari va bozor mexanizmlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy instrument sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

FAO, UNDP va UNEP tomonidan tayyorlangan hisobotda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash choralari ayrim holatlarda narx signallarining o'zgarishiga, resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishiga va ekologik bosimning ortishiga sabab bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [7]. Ushbu xulosa subsidiyalari samaradorligini faqat ajratilgan mablag' hajmi bilan emas, balki natijadorlik indikatorlari orqali baholash zarurligini ko'rsatadi.

MHXS doirasida IAS 20 "Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance" standarti davlat grantlarini tan olish, baholash va moliyaviy hisobotda ochib berishning asosiy qoidalarini belgilaydi [8]. Mazkur standart davlat subsidiyalarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish uchun bevosita metodologik asos hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, moliyaviy tahlil, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va grantlarni hisobga olish masalalari alohida-alohida o'rganilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston qishloq xo'jaligi korxonalarini misolida davlat subsidiyalarining tannarx, operatsion foyda, sof foyda, rentabellik, pul oqimi va qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ta'sirini kompleks baholash masalasi yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, normativ-huquqiy tahlil, moliyaviy koeffitsientlar tahlili, qiyosiy tahlil, sabab-natija tahlili hamda subsidiyali va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Ilmiy abstraksiyalash usuli davlat subsidiyalarining iqtisodiy mohiyatini umumlashtirishda qo'llanildi. Tizimli tahlil yordamida subsidiyalarning qishloq xo'jaligi korxonalarini xarajatlari, aktivlari, moliyaviy xarajatlari, pul oqimi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri o'zaro bog'liq holda baholandi.

Normativ-huquqiy tahlil orqali O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi², O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016-yildagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RB-404-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni³ va subsidiyalarga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Hisob-metodologik tahlilda IAS 20 va IAS 1 standartlari talablariga tayanildi.

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili subsidiyalarning sof foyda, operatsion foyda, rentabellik, ROA, moliyaviy xarajatlar va DSCR ko'rsatkichlariga ta'sirini baholashda qo'llanildi. Subsidiyali va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni taqqoslash usuli esa korxonaning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga shakllangan natijasi bilan ichki operatsion samaradorlik hisobiga shakllangan natijasini alohida baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat subsidiyalarining qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy natijalariga ta'siri bir yo'nalishda emas, balki bir nechta moliyaviy kanal orqali yuzaga keladi. Ushbu kanallarni to'g'ri aniqlash subsidiyalari samaradorligini baholashning asosiy shartidir (1-jadval).

2 <https://lex.uz/docs/-2304138>

3 <https://lex.uz/docs/-4567334>

1-jadval. Davlat subsidiyalarining moliyaviy natijalarga ta'sir kanallari⁴

Ta'sir kanali	Subsiya yo'nalishi	Bevosita ta'sir	Moliyaviy natijaga ta'siri
Operatsion xarajatlari kanali	Elektr energiyasi, suv, urug'lik, o'g'it, texnika xizmatlari	Tannarx kamayadi	Yalpi foyda va operatsion foyda oshadi
Investitsion aktivlar kanali	Suv tejoychi texnologiyalar, texnika, issiqxona, uskunalar	Aktivlar hajmi va sifati oshadi	ROA, amortizatsiya va kelgusi foydaga ta'sir qiladi
Foiz xarajatlari kanali	Kredit va lizing foizlarini qoplash	Moliyaviy xarajat kamayadi	Sof foyda va DSCR yaxshilanadi
Pul oqimi kanali	Mavsumiy xarajatlarni qo'llab-quvvatlash	Likvidlik bosimi kamayadi	Operatsion pul oqimi barqarorlashadi

Jadvaldan ko'rinadiki, subsidiya har doim bir xil moliyaviy ko'rsatkichga ta'sir qilmaydi. Masalan, elektr energiyasi xarajatlarni qoplash ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi. Tannarxning kamayishi esa yalpi foyda va operatsion foydaning oshishiga olib keladi. Biroq bu holat korxonaning ichki samaradorligi oshganini to'liq anglatmasligi mumkin, chunki foydaning ma'lum qismi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga shakllangan bo'ladi.

Investitsion subsidiyalar esa joriy davr moliyaviy natijalariga darhol ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Masalan, suv tejoychi texnologiyalar yoki qishloq xo'jaligi texnikasi uchun ajratilgan subsidiya asosiy vositalar tarkibini o'zgartiradi. Ushbu aktivlardan samarali foydalanish natijasida keyingi davrlarda suv, energiya va mehnat xarajatlari qisqarishi, ishlab chiqarish quvvati ortishi hamda rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilanishi mumkin.

Foiz subsidiyalari qishloq xo'jaligi korxonalariga uchun alohida ahamiyatga ega. Sababi, tarmoqda investitsiya loyihalari va mavsumiy xarajatlarni ko'pincha kredit yoki lizing mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Foiz xarajatlarning davlat tomonidan qisman qoplanishi moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa sof foyda, soliqgacha foyda va qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Subsidiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda ularning maqsadi va shartlari muhim ahamiyatga ega. IAS 20 talablariga ko'ra, davlat granti faqat korxonaga belgilangan shartlarni bajargan hamda mablag'larni olish bo'yicha yetarli darajada asos mavjud bo'lganda tan olinadi [8]. Agar subsidiya joriy xarajatlarni qoplashga yo'naltirilgan bo'lsa, u daromad bilan bog'liq grant sifatida hisobga olinadi. Agar subsidiya uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, u aktivlar bilan bog'liq grant sifatida tan olinadi (2-jadval).

2-jadval. Subsidiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish modeli⁵

Subsiya turi	Hisobdagi mazmuni	Tan olish sharti	Moliyaviy hisobotda aks ettirish
Elektr energiyasi xarajatlarni qoplash	Daromad bilan bog'liq grant	Xarajat yuzaga kelgan va subsidiya olish huquqi tasdiqlangan	Boshqa daromad yoki xarajatlarni kamaytirish
Suv tejoychi texnologiya uchun subsidiya	Aktiv bilan bog'liq grant	Aktiv o'rnatilgan va shartlar bajarilgan	Kechiktirilgan daromad yoki aktiv qiymatini kamaytirish
Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun subsidiya	Aktiv bilan bog'liq grant	Texnika xarid qilingan yoki lizing hujjatlari tasdiqlangan	Kechiktirilgan daromad yoki asosiy vosita qiymatini kamaytirish
Kredit yoki lizing foizini qoplash	Moliyaviy xarajat bilan bog'liq grant	Foiz xarajati yuzaga kelgan va subsidiya tasdiqlangan	Moliyaviy xarajatlarni kamaytirish yoki boshqa daromad

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, subsidiyalarni yagona hisob usuli asosida aks ettirish to'g'ri emas. Har bir subsidiya turi uning iqtisodiy mazmuni, sharti, maqsadi va moliyaviy natijaga ta'sir yo'nalishiga qarab alohida baholanishi lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida subsidiyalari va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni taqqoslash alohida ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi oddiy modeldan foydalanish mumkin:

Subsidiyasiz sof foyda = Hisobotdagi sof foyda – Tan olingan subsidiya daromadlari

Agar subsidiya xarajatlarni kamaytirish shaklida aks ettirilgan bo'lsa, subsidiyasiz tahlilda ushbu xarajat qayta tiklanishi lozim. Agar subsidiya aktiv bilan bog'liq bo'lsa, uning amortizatsiya, kechiktirilgan daromad va aktivlar rentabelligiga ta'siri alohida baholanishi kerak (3-jadval).

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi

3-jadval. Subsidiyalari va subsidiyasiz moliyaviy natijalarni taqqoslash tartibi⁶

Ko'rsatkich	Hisobot bo'yicha natija	Subsidiyalar ta'siri	Subsidiyasiz natija
Sotishdan tushgan tushum	Hisobotdan olinadi	Odatda bevosita ta'sir qilmaydi	O'zgarmaydi
Ishlab chiqarish tannarxi	Hisobotdan olinadi	Xarajat qoplangan bo'lsa kamayadi	Subsidiyasiz tannarx tiklanadi
Operatsion foyda	Hisobotdan olinadi	Operatsion subsidiya ta'sir qiladi	Subsidiya chiqarib tashlanadi
Moliyaviy xarajatlari	Hisobotdan olinadi	Foiz subsidiyasi kamaytiradi	To'liq foiz xarajati tiklanadi
Sof foyda	Hisobotdan olinadi	Subsidiya foydani oshiradi	Subsidiya ta'sirisiz hisoblanadi

Mazkur yondashuv korxonalar moliyaviy natijasining qanchalik qismi ichki operatsion samaradorlik, qanchalik qismi davlat yordami hisobiga shakllanganini aniqlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, banklar, auditorlar, investorlar va davlat organlari uchun muhimdir. Chunki subsidiyalar ta'siri ajratilmasa, korxonaning haqiqiy moliyaviy barqarorligi noto'g'ri baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat subsidiyalari qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy natijalariga ko'p kanallilik ta'sir ko'rsatadi. Ular operatsion xarajatlarni kamaytirish, investitsion aktivlarni qo'llab-quvvatlash, foiz xarajatlarni pasaytirish va pul oqimini barqarorlashtirish orqali korxonaning sof foydasi, rentabelligi, ROA va DSCR ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Shu bilan birga, subsidiyalar hisobiga yaxshilangan moliyaviy natija har doim ham korxonaning ichki samaradorligi oshganini anglatmaydi. Shu sababli qishloq xo'jaligi korxonalarida hisobot bo'yicha moliyaviy natija bilan subsidiyasiz moliyaviy natijani alohida baholash zarur.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida har bir subsidiya turi bo'yicha alohida "subsidiya pasporti" yuritilishi lozim. Unda subsidiya turi, normativ asosi, maqsadi, shartlari, summasi, tan olish sanasi va moliyaviy natijaga ta'siri ko'rsatilishi kerak.

2. Moliyaviy hisobotlarda subsidiya daromadlari, aktivga oid grantlar va foiz subsidiyalari alohida ochib berilishi zarur. Bu foyda, rentabellik va pul oqimlarini haqqoniy baholash imkonini beradi.

3. Qishloq xo'jaligi korxonalarida subsidiyalari va subsidiyasiz sof foyda, rentabellik, ROA hamda DSCR ko'rsatkichlarini alohida hisoblash amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq.

4. "Agrosubsidiya" tizimini faqat ariza va to'lov platformasi sifatida emas, balki subsidiya samaradorligini baholovchi yagona tahliliy monitoring tizimi sifatida rivojlantirish zarur.

5. Auditorlik tekshiruvlarida davlat subsidiyalarining hisobda tan olinishi, ularning shartlari bajarilishi va moliyaviy hisobotda to'liq ochib berilishi alohida audit yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-4567334>
- O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 2013-yil 26-dekabr.
- Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A. A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti: darslik. — Toshkent, 2006.
- Dusmurov R. D., Menglikulov B. Yu. Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari: o'quv qo'llanma. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
- Xasanov B. A., Raximov M. Yu., Aliqulov A. I. va boshqalar. Moliyaviy tahlil: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
- OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2025. — Paris: OECD Publishing, 2025.
- FAO, UNDP, UNEP. A Multi-Billion-Dollar Opportunity: Repurposing Agricultural Support to Transform Food Systems. — Rome; New York; Nairobi, 2021.
- International Accounting Standards Board. IAS 20 Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance. — London: IFRS Foundation.
- International Accounting Standards Board. IAS 1 Presentation of Financial Statements. — London: IFRS Foundation.
- World Bank. Uzbekistan to Modernize Its Irrigation Infrastructure with World Bank Support. — Washington, 2025.

6 Muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>